XALQ DEPUTATLARI OLOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 16-iyul VII-11-63-2-31-K/25 Olot tumani

Olot tumanidagi geografik obyektlar (ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha)ni nomlash to‘g‘risida

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 5-maydagi 05-19-7119-sonli yig‘ilish bayoni hamda xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Olot tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 5-maydagi 05-19-7119-sonli yig‘ilish bayoni hamda 05-19-7119-sonli geografik obyektlarga nom berish to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi xulosasi ma’qullansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Buxoro viloyati boshqarmasi Olot tumani filiali tomonidan aniqlangan hamda Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 5-maydagi 05-19-7119-sonli xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan Olot tumanidagi 4 ta geografik obyekt (ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha)larning nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (N.Jumayev), Davlat kadastrlari palatasi Buxoro viloyat boshqarmasi Olot tumani filiali (F.Ochilov)ga mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda yangi va qayta nomlangan ko‘chalarning nomlarini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish hamda hisobotlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Olot tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari J.Allakov, O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (V.Djurayev)larga tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig‘inlarida ko‘cha nomlari aks ettirilgan peshlavhalarni bir oy muddatda belgilangan tartibda o‘rnatilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish, xalq deputatlari Olot tuman Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi M.Po‘latov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  NEMATOVA NARGIZA ISAMIDDINOVNA

Xalq deputatlari Olot tumani
Kengashining
2025-yil 16-iyuldagi
VII-11-63-2-31-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Olot tumani mahallalaridagi nomlanadigan geografik obyektlar (tor ko‘cha, berk ko‘cha)

RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Xarita yuzasidan ekspert komissiyasining xulosasi	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Berk ko‘cha	Bayot mahallasi	Nomsiz	Bayot-6	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Berk ko‘cha	Navro‘z mahallasi	Nomsiz	Vorislar-1	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Berk ko‘cha	Navro‘z mahallasi	Nomsiz	Vorislar-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Tor ko‘cha	Navro‘z mahallasi	Nomsiz	Vorislar	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.